



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI HOKIMINING QARORI

2025-yil 23-may

121-5-0-Q/25

Navoiy viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-maydagi “Sog‘liqni saqlash va ta’lim tashkilotlarida ichimlik suvi hamda sanitariya- gigiyena infratuzilmasini kengaytirishga qaratilgan “Toza qo‘llar” dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 297-sonli qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-son Farmoni hamda 2024-yil 24-dekabrda “2025 - 2027-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-454-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-maydagi “Sog‘liqni saqlash va ta’lim tashkilotlarida ichimlik suvi hamda sanitariya-gigiyena infratuzilmasini kengaytirishga qaratilgan “Toza qo‘llar” dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 297-sonli qarori (keyingi o‘rinlarda - Qaror) ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmoniga muvofiq 2025-yil 1-maydan boshlab barcha sog‘liqni saqlash va ta’lim tashkilotlarida “Toza qo‘llar” dasturi amalga oshirilishi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025 — 2027-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 24-dekabrda PQ-454-son qaroriga muvofiq umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlarining barqaror sanitariya-gigiyena infratuzilmalarini rivojlantirish belgilangani ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Qaror bilan quyidagilar:

a) “Toza qo‘llar” dasturi doirasida sog‘liqni saqlash va ta‘lim tashkilotlarida quyidagilar:

sanitariya-gigiyena vositalari (suyuq sovun, hojatxona qog‘ozi va antiseptik) bilan Davlat budjeti va budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan yetarli miqdorda ta‘minlanishi;

ichimlik suvi ta‘minoti va sanitariya-gigiyena obyektlari (hojatxona) infratuzilmasi yaxshilanadi, ular binoning ichki qismida joylashtirilishi;

aholi, jumladan, bolalar o‘rtasida shaxsiy gigiyena odatlarini shakllantirish va unga rioya qilish bo‘yicha targ‘ibot ishlari amalga oshirilishi belgilanganligi;

b) quyidagilar:

Umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlarida “Uch yulduzli yondashuv” metodikasini joriy qilish bo‘yicha dastur;

Umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlarini “Uch yulduzli yondashuv” metodikasi bo‘yicha baholash mezonlari;

Suv ta‘minoti mavjud bo‘lmagan sog‘liqni saqlash va ta‘lim tashkilotlarini ichimlik suvi bilan ta‘minlashning manzilli ro‘yxati;

Umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlarining barqaror sanitariya-gigiyena infratuzilmalarini 2025-yilda rivojlantirish dasturi tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

4. Viloyat hokimining o‘rinbosari (J. Xodjayev), viloyat maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmasi (Hayitova), sog‘liqni saqlash boshqarmasi (Safoyev), oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi (To‘xtayev) hamda tuman (shahar) hokimliklari birgalikda Qaror bilan tasdiqlangan dasturlar hamda manzilli ro‘yxatlarda belgilangan tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta‘minlasin.

5. Viloyat maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmasi (Hayitova), viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi (Safoyev), viloyat oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi (To‘xtayev) hamda tuman (shahar) hokimliklari quyidagilar uchun mas‘ul hisoblanadi:

tasdiqlangan normativlarga asosan barcha sog‘liqni saqlash va ta‘lim tashkilotlarida talab etiladigan sanitariya-gigiyena vositalari xaridini amalga oshirish va foydalanish;

hojatxonalarga axlat qutisi va hojatxona qog'ozini qo'yish vositalarini o'rnatish, shuningdek, suv mavjud bo'lmagan sog'liqni saqlash va ta'lim tashkilotlarini ichimlik suvi bilan ta'minlash.

Bunda ichimlik suvini vaqtincha saqlash bilan bog'liq infratuzilmani yaratish hamda tashish xizmatlari joriy etilganligi inobatga olinsin.

6. Viloyat hokimligi axborot xizmati (Raubayeva), viloyat teleradiokompaniyasi (Muqimov)ga Qarorning mazmun-mohiyati va ahamiyatini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o'rinbosari J. Xodjayev zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi



N.Tursunov